

## G'alaba muborak!

☒ Jahon miqyosidagi sport musobaqalarida, olimpiada o'yinlari tarkibida o'zbek kurashi nomining o'rinni tutgani va keng yoyilgani biz uchun iftixor. O'zbek azaldan kurash orqali o'zligini namoyish etib kelgan xalq. Bu unimng xalq og'zaki ijodiyotida ham, dostonu rivoyatlarida ham aks etgan.

Joriy yilning 3 – 4 fevral kunlari O'zbekiston Kurash Milliy Federatsiyasi Toshkent viloyati bo'limi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abduganiyevich Karimov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan "Kurash bo'yicha Toshkent viloyati birinchiligi" musobaqasida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti 3 – bosqich talabasi Nomozov Jahongir ishtirok etib, + 100 kg vazn toifasida faxrli 1 – o'rinni egalladi va Federatsiya tomonidan 1 – darajali medal hamda faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

Bu esa bizning davlatimizda kurashga va polvonlarga e'tiborimiz yuqori darajada bo'lganligini bildiruvchi belgidir.

**Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti ma'naviy-ma'rifiy  
ishlar bo'yicha dekan o'rindbosari I.Raximov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**